

AKRAM VA MASHINALAR XATARI

I

Akramning uyi Toshkentda. Ko'chalaridan har xil mashinalar daryoday guvillab oqadi. Chiroyli tramvaylar qo'ng'iroqlarini jiringlatib o'tadi. Uzun trolleybuslarning simlarida uchqunlar chaqnaydi. Goho o't o'chiruvchi qizil mashina chinqirib o'tib qoladi.

Akram kichkinaligida mashinalardan juda qo'rqar edi. Ayniqsa, yerni titratib, ketidan tutun burqsitib o'tadigan og'ir yuk mashinalari unga juda vahimali ko'rinar edi. Lekin u dadasining qo'lidan ushlab, mashinalarga uzoqdan qarab turishni yaxshi ko'rar edi.

Akram to'rt yoshga to'lganda oyisi do'kondan o'yinchoq mashinalar olib keldi. Bittasi qizil avtobuscha. Polga g'ildiragini ishqab, qo'yib yuborsa shig'illab yurib ketadi. Yana bittasi ko'k samosval. Temir dastachasini burasa, orqasi ko'tarilib, yuki yerga tushadi. Yana bittasi «Volga». O'zi sariq, g'ildiraklari qora. Buni Akram o'zi itarmasa yurmaydi.

— Mashinalaringni uyda o'ynagin, — dedi Akramga oyisi. — Ko'chaga olib chiqmagin.

— Nega? — hayron bo'lib so'radi Akram.

— Ko'chadan katta mashinalar o'tadi. Bosib ketadi.

Akram shunday chiroyli mashinalarining pachaq bo'lishini hech ham istamas edi. Oyisiga:

— Xo'p, oyijon, ko'chada o'ynamayman, — dedi.

Mashinalarini divanda yurgizib ko'rdi. Gilam ustida o'ynadi. Ko'chada yurgan mashinalarga o'xshatib:

— Be-ep! Be-e-p! G'ang! G'ang-ng! — degan ovozlari chiqardi.

Samosval tormoz berganda allaqayeridan «Pish-sh!»

etib havo chiqishini, g'ildiragi g'iyqillab to'xtashini ham Akram o'z ovozi bilan qilar edi.

Akram mashinalarini ancha vaqt uyda o'ynadi-yu, keyin hovliga olib chiqdi. Hovlida gullar, daraxtlar ko'p. Lekin mashinachalar yuradigan tekis joy oz. Akram darvozaning oldiga bordi. Oyisi vannaxonada kir yuvayotgandi. Akram mashinalarini sekin ko'chaga olib chiqdi. Asfalt yo'lkada qo'shni bolalar o'ynab yurgan ekan. Akram ularga mashinalarini ko'rsatdi. U hali «r» deyolmas edi:

— Qaya, Shavkat! Avtobus ham o'zi yuyadi! Senda bunaqa yo'q! — deb maqtandi.

Bolalar uning mashinalarini o'rab olishdi.

— Men bitta ushlab ko'ray!

— Men bitta yurgizay! — deyishdi chuvillashib.

— Yo'q, o'zim! — deb Akram avtobuschasini asfaltga ishqab, qo'yib yuborgan edi, shig'illab borib, kichik bir ko'prikning ustidan o'tdi-da, katta yo'lga chiqdi.

Akram bundan xursand bo'lib, avtobuschasining ketidan chopdi. Ko'chadan katta mashinalar bir-birlarini quvlashib o'tayotgandi. Bitta oq «Volga» Akramning avtobuschasini bosib ketishiga sal qoldi.

Shu payt hovlidan Akramning oyisi chiqdi. Akram avtobuschasini olgani katta ko'cha yuziga chiqqan edi. Oyisi unga:

— Hay, qayt orqangga! — dedi. — Senga nima degan edim? Mashina urib ketsa nima bo'ladi?

Akram orqasiga qaytdi. Oyisi uni uyga olib kirdi. Mashinalarini olib, javonning tepasiga qo'ydi.

— Gapinga kirmaganing uchun endi senga mashinalarni bermayman, — dedi.

Akram yig'lagunday bo'lib, birpas labini burib, qovog'ini solib turdi. Keyin oyisining oldiga bordi:

— Men endi ko'chada o'ynamayman, — dedi. — Men... men hamma gapingizga xo'p deyman. Kechiyasiz, oyijon, kechiyasiz!..

— Shu gapingda turasanmi?

— Ha!

— Endi katta ko'chaga chiqmaysanmi?

— Chiqmayman!

Oyisi Akramga ishondi. Mashinalarini javonning tepasidan olib berdi.

Akram bir-ikki kun uyda, hovlida o'ynab yurdi. Bu orada mashinachalarining biri buzilib ishdan chiqdi. Lekin qizil avtobuschasi hali ham tekis joyda shig'illab yurar edi.

Bir kun Akramning oyisi do'konga ketdi. Keksa buvisi ayvonda mudrab yotib uxlab qoldi. Shu payt Akramning o'rtog'i Shavkat darvozadan boshini suqib:

— Chiq, o'ynaymiz! — dedi. — Mashinalaringni obchiq!

Akram oyisiga «ko'chada mashina o'ynamayman», deganini esladi.

— Ha, qo'rqasanmi? — dedi Shavkat. — Qo'rqoqmisan?

Shavkat Akramdan ikki yosh katta edi. Akram uning oldida qo'rqoq bo'lib ko'ringisi kelmadi. «Oyim kelguncha birpasgina o'ynayman-u, darrov kiraman», — deb o'yladi.

Akram qizil avtobuschasini ko'chaga olib chiqdi. Uni Shavkat ikkalasi navbatma-navbat yo'lka asfaltiga ishqab yurgiza boshlashdi. Shavkat Akramdan kattaroq va kuchliroq edi. Shavkat yurgizganda avtobuscha uzoqroq yurar edi. Shavkat nuqul:

— Sen menday yurgizolmaysan! Sen menday yurgizolmaysan! — deb maqtanar edi.

Akram avtobuschani Shavkat yurgizgandan ham tezroq yurgizmoqchi bo'ldi. Qiziqib ketib, yo'lkadan katta ko'cha yuziga chiqqanini bilmay qoldi. Katta ko'chada u avtobuschani bor kuchi bilan ishqab-ishqab, qo'yib yubordi. Avtobuscha katta ko'chani o'rtasigacha yurib bordi.

Shu payt muyulishdan shag'al ortgan o'n bir tonnalik ulkan yuk mashinasi orqasida prisepi bilan guvillab chiqib keldi. Yo'lkada turgan Shavkat Akramga qarab qichqirdi:

— Qoch! Yugur bu yoqqa!

Samosval ham qattiq signal berdi. Akram orqasiga

burilib, yo'lkaga qarab intildi. Agar u shu intilganicha yo'lkaga qarab chopganda, qochib ulguradi. Samosval haydab kelayotgan amaki ham uni qochib ulguradi deb o'ylagan bo'lsa kerak. Yana bir signal berdi-yu, ammo tormozni unchalik qattiq bosmadi.

Birdan Akramning ko'zi ko'cha o'rtasida to'xtab qolgan chiroyli qizil avtobuschasiga tushdi. Bahaybat samosval hozir borib uni pachaqlaydi! Akramning avtobuschaga shunday ichi achidiki, uni qutqarmoqchi bo'lib dadil orqasiga qaytdi va ko'cha o'rtasiga qarab yugurdi. Lekin u avtobuschaning oldiga borguncha bahaybat mashina ham yetib keldi! Haydovchi Akramning birdan orqaga qaytishini kutmagan edi. Jon-jahdi bilan tormoz berdi. Ammo mashinaning yuki og'ir, Akram esa unga juda yaqin kelib qolgan edi. Haydovchi har qancha urinsa ham mashinani to'xtatib ulgurolmadi. Tormozi chiyillaganicha naq Akramning tepasiga yetib keldi. Akram ustiga bosib kelayotgan vahimali mashinadan, uning yog'bosgan temirlaridan, loy tekkan g'ildiraklaridan qo'rqib ketdi. O'zini avtobuschasining yoniga tashladi-yu, g'ujanak bo'lib yotib oldi. Keyin u mashinaning tagida ko'rinmay ketdi.

Shavkat dod solib qichqirdi. Mashina to'xtadi. Qo'rqib, rangi oppoq bo'lib ketgan haydovchi baland kabinadan yerga sakrab tushdi. Ichkaridan Akramning buvisi chopib chiqdi.

— Akram qani, Akram?!

Shavkat yig'lab turib:

— Bosib ketdi! — dedi. — Mashina bosib ketdi!

Akramning buvisi chinqirib mashinaga tomon chopdi. O'tkinchilar to'plandi.

Bu orada haydovchi mashinaning tagiga kirib, Akramni g'ildiraklarning orasidan tortib oldi.

Akram behush edi. Shofyor uni ko'tarib oldi.

— Voy buving aylansin, Akramjon! Voy mengina o'lay!

Kimdir Akramning ko'karib ketgan yuziga suv sepd. Bola ko'zini ochdi. Kimdir unga suv ichirdi.

Haydovchi yigit Akramning qo'llarini, oyoqlarini ushlab, sekin-sekin paypaslab ko'rdi:

— Og'rimayaptimi? Hech qayering og'rimayaptimi? — deb so'radi.

Akramning gapirishga ham majoli yo'q edi. Boshini chayqab, «yo'q, og'rimayapti» deganday qildi.

U mashinaning baland g'ildiraklari orasida qolib ketgan edi. Yerga g'ujanak bo'lib yotib olgani uchun mashinaning hech qayeri unga tegmagan ekan! Haydovchi yigit shuni tushundi-yu, quvonib, Akramni bag'riga bosdi:

— Baxting bor ekan, ukam! Mening ham omadim kelgan ekan! Agar bir qarich nari-berida bo'lsang, sen ham ketarding, men ham qamalar edim!

Akramga suv ichirgan keksa kishi uning buvisini urishdi:

— Nega yosh bolani ko'chaga haydab qo'yibsiz? Bosib ketsa nima bo'lar edi?!

— Voy mengina o'lay, bilmay qolibman! Ko'chada o'ynamagin, deb ming marta aytganman! Oyisiga ham o'zi so'z bergan edi!

Haydovchi yigit Akramni hovliga ko'tarib olib kirib, ayvonga yotqizib qo'ydi:

— Bola qo'rqan, — dedi kampirga. — Birpas yotib nafasini rostlasin, keyin yana o'ynab ketadi.

Haydovchi yigit Akramga qarab qo'shib qo'ydi:

— Ammo ko'cha yuzida o'ynaganing uchun ota-onang senga yaxshilab jazo berishlari kerak! Xo'p, xayr!

Ulkan mashina vag'illab jo'nab ketdi. Uning tagida yotgan qizil avtobuscha ham zarar ko'rmay butun qolgan edi. Ammo orqadan ketma-ket kelayotgan mashinalardan biri avtobuschani qarsillatib bosib, pachaqlab ketdi. Yana biri uni g'ildiragi bilan urib yo'lning chetiga chiqarib tashladi.

Bu orada do'kondan qaytib kelayotgan Akramning oyisi yo'l bo'yida pachaqlanib yotgan qizil avtobuschani ko'rib hayron bo'ldi. Keyin uni tanib, yerdan oldi-da, hovliga otildi.

Akram ayvonda bo'shshib o'tirar edi. Buvisi

butun voqeani oyisiga aytib berdi. Oyisi Muhabbat opa ham avval o'g'ilchasining omon qolganidan suyunib, uni quchoqlab o'pdi. Keyin Akramning «ko'chada o'ynamayman», deb so'z berganini esladi.

— Nega bergan so'zingda turmading, a? Mana, avtobuschang pachaq bo'lipti. Buning uchun kim aybdor? — deb o'g'lini koyidi.

— Men... Men avtobuschamni qutqaraman deb...

— Ko'chaning o'rtasiga haydab yuborganingdan keyin qutqarib bo'lar ekanmi? Xo'p, shunday bo'liptil! Avtobuschani deb o'zingni mashinaning tagiga tashlaysanmi? Avtobuscha pachaq bo'lsa, do'konda yana boshqasi bor. Seni mashina bosib ketsa men nima qilar edim? Buni hech o'ylaysanmi?

— O'ylayman, — deb g'ulduradi Akram. Bu gal u oyisiga «ko'chada o'ynamayman», deb va'da bermadi. Lekin shundan beri har ko'chaga chiqqanida ustidan o'tib ketgan vahimali mashina esiga tushadi, pachaq bo'lgan qizil avtobuschasi ko'z oldiga keladi.

SANJAR AKANING SINOVI

Akram dadasining kimyogar olim ekanini biladi. Lekin uning nima ish qilishini hali tushunmaydi. Dadasidan so'rasa, Sanjar aka kulib:

— Shoshma, bir kun laboratoriyaga olib boraman, ko'rasan, — deydi.

Sanjar aka ishdan kech qaytadi. Akramni bog'chadan ko'pincha oyisi Muhabbat opa oladi. Faqat yoz kunlarining birida kechqurun bog'chaga Sanjar akaning o'zi kelib qoldi.

— Oyingning maktabida bugun majlis bor ekan, — dedi, — men ishimni chala tashlab keldim. Tezroq kiyin.

— Dada, mashinangizda keldingizmi?

— Ha, tez bo'll

Akram hozir dadasining mashinasiga o'tirishini o'yladi-da, quvonib, apil-tapil kiyindi.

Bog'chaning panjarali darvozasi oldida Sanjar akaning qizil «Jiguli» mashinasi turgan edi.

Sanjar aka orqa eshikni ochdi.

— Dada, oldiga o'tiray! — deb iltimos qildi Akram.

— Agar to'satdan tormoz bersam, oldingi oynaga boshing bilan yomon urilasan!

— Urilmayman, dadajon! Qo'limni tirab o'tiraman. Xo'pmi?

— Ha, xo'p! — deb Sanjar aka o'g'liga oldingi eshikni ochib berdi.

Sanjar aka mashinasini sershovqin, serharakat ko'chalardan haydab o'tdi. Keyin derazalari ochiq turgan to'rt qavatli kulrang binoning oldidan o'ngga burildi-da, uning hovlisiga kirib to'xtadi. Kun kech bo'lgan, hovlini to'rt qavatli binoning soyasi qoplab olgan edi.

Sanjar aka o'g'liga qarab:

— Mening yana yarim soatlik ishim qolgan, — dedi. — Mashinada o'tirib turasanmi?

— Dada, men ham birga boray?

— Borib nima qilasan?

— Ishimni ko'rasan, degan edingiz-ku.

Sanjar aka Akramning «r»ni yaxshi aytadigan bo'lib qolganini endi sezdi.

— Iye, aytmoqchi, «r»ni o'rganibsan-ku. Qani, «r» degin-chi?

— «Rel» Bog'chada murabbiyamiz o'rgatdilar! Rel!

— Ha, durust. Bo'пти, tusha qol, laboratoriyani ko'rsataman.

Sanjar aka mashinasining eshiklarini qulfladi. Keyin Akram bilan uchinchi qavatdagi katta bir xonaga chiqdi.

Xonada doktorlarga o'xshab oq xalat kiygan bir yigit kichkina mitti tarozida allanarsani tortayotgan edi. Ish vaqti allaqachon tugagan, boshqa xodimlar ketib bo'lishgan edi. Sanjar aka o'g'lini ochiq deraza oldida turgan stulga o'tqazdi. O'zi shkafdan oq xalatinini olib kiydi. Xonaning ichida uzunchoq, yumaloq va boshqa turli shakldagi shishalar, g'alati narsalar bor edi. Vishillab gaz yonib turibdi. Shishalarning ichida qandaydir suyuqliklar qaynaydi, ko'piradi.

Uzunchoq bir shisha idish chirpirak bo'lib aylanyap-ti. Tepadan g'uvillagan ovoz keladi.

Akram boshini ko'tarib qaradi. Devor teshigiga havoni tozalab beradigan shamolparrak o'rnatilgan edi. Uning yaltiroq temir parraklari tinimsiz aylanib turibdi. Shunday bo'lsa ham, xonada achimtir bir tutun suzib yuradi, o'tkir hidlar anqiydi.

— Dada, bu nimaning hidi? — so'radi Akram.

— Bilmadim. Men o'rganib ketganman. Dimog'im bu yerdagi hidlarni sezmaydi.

Sanjar aka qo'liga qog'oz-qalam olib, qaynab tur-gan suyuqliklarning oldiga ketdi. Shu payt eshikdan oq xalat kiygan, sochlari oqargan, past bo'yli bir kishi qo'lini orqasiga qilib kirib keldi. Akram bu kekxa odamni avval ham ko'rgan edi. Bu kishi uyla-riga mehmon bo'lib kelganda Sanjar aka: «Meni olim qilgan akademik», deb aytgan edi.

Akram «akademik» degan so'zning ma'nosiga yaxshi tushunmasa ham, otasi bu kekxa odamdan ko'p narsa o'rganganini sezgan edi. Shuning uchun o'rnidan sakrab turib kekxa akademikka:

— Assalomu alaykum! — dedi.

— Salom, o'g'lim!.. E, dadangiz sizni ham bu yerga olib keldilarmi? Otingiz nima edi?

— Akram.

— Ha, Akramjon! Ammo bu yerga yaxshi paytda kelibsiz. Men dadangizni tabriklash uchun kirgan edim... Sanjar Suyunovich, siz topgan dorivor o'sim-liklar hamma sinovlardan yaxshi o'tdi. Katta muko-fot oladigan bo'ldingiz!

— Rahmat, ustoz! Bu hammasi sizning yordami-ngiz bilan!

Kekxa olim Sanjar akaning qo'lidan olib, uning yuziga tikildi.

— Lekin endi durustroq dam oling. Yoshingiz hali qirqqa borgan yo'q-ku, sochingizda oq ko'payib ketibdi. O'zingizni ayamaysiz. Mana, hozir hamma ishdan ketgan. Siz hamon shu yerdasiz. Sog'liqni ham o'ylash kerak. Yo'llanma bor ekan. Qora dengiz bo'ylariga boring.

Akram dadasiga, «meni ham oborasiz!» demoqchi bo'lib qaradi. Lekin Sanjar akaning xayoli ustozida edi:

— To'g'ri, yo'llanma bo'lsa, albatta boramiz, — dedi.

Sanjar aka ustozini eshikkacha kuzatib qo'ydi. Keyin ko'p o'tmay ishini bitirdi-da, Akramni ergashtirib, mashinasining oldiga tushdi.

Ustozning tabrigidan Sanjar aka juda xursand bo'lgan edi. Mashinani o't oldirayotib o'g'lidan so'radi:

— Eshitdingmi, Akram! Biz topgan dorivorlar uchun mukofot oladigan bo'libmiz.

Akram birdan xursand bo'lib ketdi:

— Dadajon, bo'lmasa do'konga boraylik! Menga yangi o'yinchoq mashinalardan olib bering!

— Ob-bo sen-ey! Darrov gapni bu yoqqa burding-al!

— O'zingiz «tank olib beraman», degan edingiz-ku!

Sanjar aka soatiga qaradi. Hali yetti bo'lgani yo'q. Demak, do'kon ochiq.

— Ha, mayli, yur, bugun seni ham bir xursand qilay!

Sanjar aka mashinasini «Bolalar dunyosi»ning oldida to'xtatdi. Ota-bola o'yinchoq mashinalar sotiladigan joyga kirishdi. Sanjar akaning saxiyligi tutib Akramga bitta ko'k tank, bitta o'ziyurar yashil zambarak, bitta sariq yengil mashina, yana bitta qora yuk mashinasini olib berdi. Akram buning hammasini quchoqlab do'kondan chiqayotganda yana bir antiqa o'yinchoqni ko'rib qoldi. Uning nazarida, hozir dadasi u istagan hamma narsani olib beradiganga o'xshar edi.

— Dada, shuni ham obering!

— Yo'q, endi bas.

— Dadajo-on! — deb erkalandi Akram.

— Sen ishtahangni karnay qilma, Akram. Avval mana bu mashinalarni o'ynab tur. Keyin bir kun payti kelganda unisini ham olamiz.

— Boshqa kuni oberasizmi?

— Ha, ko‘ramiz. Agar yaxshi bola bo‘lsang, sendan hech narsani ayamayman.

Akram hozir yaxshi bola bo‘lishni juda-juda istar edi. U dadasidan qanchalik xursand bo‘lib borayotganini aytgisi kelardi.

Uyga kelganda mashinalarini onasiga ko‘rsatdida:

— Men katta bo‘lsam, — dedi, — dadamga o‘xshagan kimik bo‘laman!

Maktabda o‘qituvchilik qiladigan Muhabbat opa:

— «Kimik emas, kimyogar, — deb uning xatosini to‘g‘riladi.

Buvisi Sobira xola Akramning chuchuk tilidan zavqlanib:

— Kimik bo‘ladigan nevaramdan o‘rgilay! — dedi. — Buning joni bizga tekin qolgan! Akramjon tegirmondan butun chiqqan! Shunday bahaybat mashinaning tagidan sog‘ chiqish osonmi?

O‘sha qo‘rqinchli voqeadan keyin Sobira xola nevarasini juda ko‘p suyib erkalatadi, yong‘oqmi, shokoladmi, nima topsa, Akramga beradi. Akram oyisiga:

— To‘p obering! O‘yinchoq obering! — deb qolsa, buvisi darrov Akramga yon bosadi:

— Oberaqol, bolam!

— Aya, axir Akramning o‘yinchog‘i juda ko‘p. Hammasi har yoqda sochilib yotipti. Biror kun o‘ynar-o‘ynamas ichini kavlab buzadi. Mana, kechagina dadasi olib bergan zambarakni ham sindiribdi.

— O‘zi sinib qoldi, — dedi Akram.

— Ehtiyot qilsang sinmas edi. Sen tartib nimaligini bilmaysan. Qara, tanking ham oyoq ostida yotipti. Birov ko‘rmasdan bosib olsa, bu ham sinadi.

Buvisi yo‘lakda yotgan o‘yinchoqlarni yig‘ishtira boshladi.

Buni Sanjar aka ko‘rdi-yu:

— Ona, qo‘ying, o‘zi yig‘ishtirsin, — dedi.

— E, bolam, Akram hali kichkina. Katta bo‘lsa yig‘ishtirar.

— Yo‘q, tartib-intizomga hozirdan o‘rgansin. Qani, Akram, ol, o‘yinchoqlaringni yig‘ishtir!

Akram istar-istamas engashib, yo‘lakda yotgan mashina bilan tankni oldi. Lekin yo‘lakning narigi chetida uning ikki poy shippagi ikki tomonga qarab chappa bo‘lib yotipti. Bog‘chadan kiyib kelgan oq qalpoqchasi poyandoz ustida, oyoq ostida qolib ketgan. Bu narsalarni buvisi yig‘ishtirdi. Akram esa bir-ikki soat o‘tar-o‘tmas dadasi bergan tanbehni unutdi-yu:

— Dada, zanjirlik velosiped obering! — dedi. — Obersangiz narsalarimni doim yig‘ishtirib yuraman.

— Iye, sen hali bunaqa shart qo‘yishni ham o‘rgandingmi? «Obering-obering» deyaverish o‘zi juda xunuk odat. Endi bu odatni tashlamaguningcha senga hech narsa olib bermayman!

Akram boshini quyi soldi, burnining usti terlab, lablari pir-pir uchdi.

— Shavkat velosipedni Akramga ko‘rsatib rosa maqtandi-da, — dedi Sobira xola. — O‘zim eshitdim. «Senda bunaqasi yo‘q, dadang senga obermay-di», — deb Akramni rosa kuydirdi.

— Akram u kuni dadasi olib bergan o‘yinchoq mashinalarini Shavkatga ko‘rsatib maqtangan edi, — dedi Muhabbat opa. — Bunga yangi bir narsa olib bersangiz, qo‘shni bolalarga ko‘rsatib, «senda bunaqasi yo‘q!» — deb ko‘z-ko‘z qilishga o‘rganibdi.

— Tantiqlikdan chiqqan maqtanchoqlik bu! — dedi Sanjar aka o‘g‘lidan qattiq ranjib. — Men maqtanchoq bolani yomon ko‘raman!

Akramga dadasining bu gapi «maqtanchoq bo‘lsang, seni ham yomon ko‘raman!» deganday eshiltildi. Akramning ko‘zlari birdan yoshlandi. U buvisining yelkasiga yuzini yashirdi.

Sobira xola uni bag‘riga bosib, boshini silagan edi, Akram birdan «hiq, hiq!» qilib yig‘lab yubordi.

— Hay, dadajoni, — dedi Sobira xola, — Akram bilmay shunday qilgan. Men ham buni ko‘p erkalatib, xiyol tantiq qilib qo‘yganga o‘xshayman. Endi biz bunday qilmaymiz. A, Akramjon, qilmaymizmi? Qani, yig‘ini bas qilib, dadangga aytgin...

Akram ko'zlarini mushtumi bilan artdi, yig'idan to'xtadi, lekin o'pkasini tezda bosolmadi. Tili gapga kelmadi. Sobira xola uning xayolini boshqa yoqqa burishga tirishdi:

— Muhabbat, Qora dengizga dam olgani boradigan bo'ldilaringmi?

— Ha.

— Qachon jo'namoqchisizlar?

— Yanagi hafta jo'naymiz.

— Akramjonni ham olib ketasizlarmi?

Muhabbat opa Sanjar akaga qaradi. Sanjar aka o'ychanlik bilan gapirdi:

— Hayronman, Akram qayerga borsa, nuqul «obering» deydigan odat chiqaribdi. Bu bilan birorta do'konning oldidan tinch o'tib bo'lmaydi. Uyda narsalarini yig'ishtirmaydi. Tartibi yo'q... Qora dengizga birga olib ketsak, yana qo'shni bolalarga maqtansa, «hech kim bormagan joyga bordim!» deb taniqlansa...

Akram bo'g'iq tovush bilan.

— Endi maqtanmayman! — dedi.

— Akramni birga olib boringlar, bolam, — deb Sobira xola yana nevarasiga yon bosdi. — Agar birga olib borsalaring Akram «obering» degan odatini tashlaydi. Mana, men kafil! Narsalarini ham yig'ishtirib yuradigan bo'ladi. Maqtanishini ham bas qiladi. Ana shunday shart qo'yamiz. Bo'ptimi?

— Yo'q, oyi, men bunaqa shart qo'yishlarga qarshiman, — dedi Sanjar aka. — «Sen unday yaxshi ish qilsang, senga bunday yaxshilik qilaman», — deyish savdoga o'xshab ketadi. Biz bilan Akramga bunday savdo hech yarashmaydi.

— Bo'lmasa Akram qandoq qilsin?

— Bizga nima qilig'i yoqmaganini aytdik. Akram, hamma gapimizga tushundingmi?

— Tush... tushundim.

— Tushungan bo'lsang, bu yog'ini o'zing bilasan... Hali jo'nashimizga bir hafta bor. O'shangacha yana o'ylab ko'ramiz.

— Ana, eshitdingmi? — dedi buvisi Akramga. — Endi esingni yig'. Bugungi gaplarni unutm.

Akram uchun narsalarini yig'ishtirib yurish shu vaqtgacha hech keraksiz bir ishday ko'rinar edi. Ko'pincha bu esidan chiqib ketar edi. Endi u sochilib yotgan o'yinchoqlarini ko'rsa darhol otasining achchiq tanbehini eslaydi. Buvisi unga «o'yinchoqlaringni solib yur», deb bitta eski chamadonchani berdi. Akram endi uyda o'ynamoqchi bo'lsa, shu chamadonchani tokchadan olib ochadi. O'ynab bo'lgandan keyin esa mashinalar-u buzuq soatlar, temir askarchalar hammasi yana qaytib chamadonchaga kiradi. Keyin Akram uni tokchadagi joyiga eltib qo'yadi.

Lekin ba'zida televizorga alahsib, kiyimlarini yig'ishtirish esidan chiqadi. Akramning paypoqlari, koftasi, sharfi har qayerda betartib yotganini Sanjar aka ko'rib qoladi. Shunda u Akramga «yanami?» deganday bir qarab qo'ysa bas. Akram darrov o'sha kungi gaplarni eslaydi-yu, sakrab turib kiyimlarini joy-joyiga qo'yadi. Buvisi buni ko'rib, Akramni Muhabbat opaga maqtaydi:

— Qara, Akraming juda farosatli bola-da!

— Ha, ancha tartibli bo'lib qoldi.

Akram bunday maqtovnini eshitgan paytlarda darhol oyisiga erkalik qila boshlaydi:

— Oyi, G'ayratga dadasi batareya bilan yuradigan chiroyli buldozer olib beribdi.

— Ha, dadang senga ham buldozer olib bersinmi?

— Dadam emas, siz...

— Men? Demak, yana «obering»ni boshlamoqchimisani?

Akram Qora dengizga borolmay qolishi mumkinligini sezadi-da:

— Yo'q, — deb bosh chayqaydi.

Ertasi kuni Muhabbat opa chamadonlarga narsalarini joylab, safar tayyorgarligini ko'ra boshladi. Lekin dadasi bilan oyisi Akramni ham olib ketishadimi, yo'qmi? Buni o'g'illariga ochiq aytishmas edi. Akram oyisidan so'rasa, «dadang biladi», derdi.